

Hamrayeva Dilbar Xamza qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

TURIZMNI O'RGANISHNING ILMIIY VA NAZARIY JIHATLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm tushunchasi, turizmning mazmun va mohiyati, turizmni o'rganishning tadqiqot metodologiyasi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda turizmni tadqiq qilishning nazariy asoslari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turizm turlari, turist, turizm sohasi, tadqiqot metodologiyasi.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ТУРИЗМА.

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятии туризма, содержании и сущности туризма, методике исследования туризма. Также представлена информация о теоретических основах исследования туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, виды туризма, турист, сфера туризма, методология исследования.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF THE STUDY OF TOURISM.

Annotation: this article provides information about the concept of tourism, the content and essence of tourism, the research methodology for studying tourism. It also provides information on the theoretical basis of Tourism Research in Uzbekistan.

Keywords: tourism, types of tourism, tourist, tourism industry, research methodology.

Turizm ko'p qirrali va muhim ijtimoiy hodisa. Undan mohirona foydalanish mamlakatlar iqtisodiyotining yangi jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Turizm so'zi (fransuzcha: our-sayr, sayohat), sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda

borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketish (sayohat qilishi) tushuniladi. Keng ma'noda kishilarni hayotda harakatda bo'lishlari.

Turizm sayohat demakdir. Uning negizida dam olish, hordiq chiqarish, sayr, sarguzashtlar, piyoda yurish, jismonan chiniqish, hududni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi ijtimoiy-tarbiyaviy va madaniy jarayonlar yotadi. Turizm sohasi-ko'p qirrali hodisa bo'lib, u ko'pgina shakllarda namayon bo'ladi va ilmiy adabiyotlarda juda ko'p ta'riflari mavjud. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko'p sohalarini qamrab oladi. Aynan shuning uchun ham turizmning asosiy yo'nalishlari, turlari, kategoriyalari, turistik xizmatlar, turizm ilmi bilan bog'liq barcha masalalar haqida bilim berish, ayniqsa turizmga oid tushuncha va atamalarning har birini ta'riflash va tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Turizmning mazmuni va mohiyati - turizmning fundamental asoslari bilan tanishtirish uning asl mohiyatini ochib berish, turizmning asosiy ilmiy tushunchalarini o'rgatish, uning taraqqiyot yo'li hozirgi kundagi muammolarini aniqlash va tahlil qilish, turizm to'g'risidagi bilimlarni yaxlit tizimini shakllantirishdan iborat.

Turizmning maqsad va vazifasi esa nazariy va amaliy materiallarga tayangan holda turizmning mohiyatini tasniflanishi va o'ziga xos xususiyatlarini ajratish, uni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotidagi bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash, turizm bozoriga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish turizmni davlat tomomidan tartibga solish vositalari, turizmda iqtisodiy jarayonlarni o'rganish zarurligi, turizm sohasini isloh qilish va turistik faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, turizm sohasida xafsizlikni ta'minlash tamoyillarini o'rganish hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'pincha ijtimoiy soha va turizm tarmog'ining rivolanishi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda turizm milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida muayyan mamlakatlarning barqaror rivojlanishida o'zining ahamiyatiga ega. Turizm sohasi inson hayoti rivolanishining muhim omili bo'lib bormoqda. bu esa aynan shu hududda yangi ish

o‘rinlarining yaratilishi, qo‘shimcha daromad va investitsiyalarning jalb qilinishi, madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda to‘g‘ri foydalanishda o‘z o‘rnini topmoqda . Turizm yo‘nalishidagi islohatlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi turizmni samarali tashkil qilish chora tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 26- aprelgagi PQ 135-sonli „O‘zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida "gi qarori muhim yo‘naltiruvchi sifatida belgilab olindi. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulaysharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi yetarli emas edi. Endilikda mamlakatimizda turizmni rivojlanirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirishga kirishildi. Xususan turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlarini yengillashtirib, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirishga kirishildi. Ushbu prinsiplarni amalga oshirish uchun amaliyotga tadbiriq etishning ma‘lum usullarini, ilmiy yo‘llarini bilishni talab qiladi. Metodlar (yunoncha metodos- biror narsaga yo‘l) ilmiy usullar, maqsadga erishishning nazariy vositalari, nazariyyoki amaliy natija olishning tizimlashtirilgan usuli. Usullar ma‘lum bir nazariya bilan birgalikda ishlatiladi. Nazariya tanlangan ilmiy usullarga muvofiq shqakllantiriladi, ishlab chiqiriladi va sinovdan o‘tkaziladi. Medotning o‘zi nazariya, nazariy yondashuv (masalan: empirik usul) vazifasini bajarishi mumkin. Umumiy usullar (dialektik), maxsus (sinergitik) va xususiy (satsiologiyada mazmum tahlili) mavjud. Ilmiy yoki amaliy natija olish usullari (yondashuvlar, usullar, sharhlar) majmui metodologiyadir.

Turizmologiyada barcha usullar (yondashuvlar) guruhlari qo‘llaniladi, tizimli yondashuv, modellashtirish, rasmiylashtirish, analogiya, taqqoslash (qiyoslash), ideallashtirish usullari alohida ahamiyatga ega. Turizm sohasini

uslibiy tahlil qilish yoʻnalishiga qarab (iqtisodiyot, mehmonxona xoʻjaligi, restoran biznesi, kasb-hunar taʼlimi turizimi, turizmni huquqiy taʼminlash va boshqalar) tegishli usullar qoʻllaniladi.

Turim geografiyasi bilan xorijiy davlatlarda I.G.Kol, V.Unitsiker, A.Gettner, R.Blanshar, A.Mariotti, Corneliu Iatu, MDH davlatlarida A.YU.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, YU.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, YU.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizm geografiyasining ayrim muammolari boʻyicha Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, SH.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliyev, A.Nigʻmatov, T.Toshmurodov, B.Husanboev, N.Toʻxliev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xayitboev, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov, M.R.Usmonov kabi mutaxassislar shugʻullangan [1].

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng turizmga alohida eʼtibor berila boshlandi va davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Oʻzbekiston jahon mamlakatlariga oʻz jozibasini koʻrsatish uchun turizmni rivojlantirish, unga yangicha eʼtibor berish lozim edi. Mamlakatda turizm rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizimlar yaratildi, hukumat tomonidan tegishli meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu sohadagi ish hozir ham davom etyapti. Mamlakatda turistlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala boʻlib bormqda. Shularni hisobga olgan holda xorijiy tillarni hamda tarix va geografiyani puxta biladigan mutaxasislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishdir.

Bu borada turizm sohasidagi oliy oʻquv yurtlari, Davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturidagi ixtisoslik fanlar, darsliklar, adabiyotlar, oʻquv qoʻllanmalar yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan I. S. Tuxliyevning “Turizm asoslari”, X. M. Mamatqulov “Xalqaro turizm”, M.M. Ahmadjonovichning “Turizm asoslari”, F.E.Gulmetov “Turizm geografiyasi”, H.R.Hamroyev “Turizmologiya”, T.Xoldarov “Turizm sayyohlik”, M.R.Usmonovning “Turizm

geografiyasi” kabi o‘quv qo‘llanma va darsliklar turizm yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarga magistrarga, bundan tashqari tadqiqotchilar, professor o‘qituvchilar, turizm kasb-hunar kollejlari o‘ituvchilari, turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxasis-xodimlarga mo‘ljallangan.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu darslik va o‘quv qo‘llanmalar turizm asoslarini o‘qitishda yaqindan yordam beradi. Ushbu manbalar fan haqida aniq tushunchaga ega bo‘lishni, jiddiy chegaralarini va uning mohiyatini tushunishda qo‘l keladi. Bundan tashqari bozor munosabat lari sharoiti asosida turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turizm to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlar berilgan. Mahalliy milliy va hududiy turizmni rivojlantirishning tamoyillari va metodlarini qo‘llash orqali sezilarni darajada iqtisodiy daromad olishga alohida e‘tibor berilgan. Bu adabiyotlarda har bir mavzuni talaba tomonidan yaxshi o‘zlashtirish bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar va test savollari o‘rin olgan. Shuning uchun darsliklarda birinchi navbatda fanni anglab olish talab qilinsa, ikkinchidan esa talabalarni o‘zlarining yo‘nalishidagi qiziqishlari, fanga yanada ma‘suliyat bilan yondashishni maqsad qilib olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Usmonov M.R “Turizm geografiyasi”. Samarqand-2020. 281 b.
- 2.Abdimo‘Minov T.A., Toshpo‘Latov Sh.M., & Cho‘Liboyev I.I. (2022). TARIXIY VA MADANIY OBYEKTЛАRNING TURISTIK IMKONIYATLARI (JARQO‘RG‘ON MINORASI MISOLIDA). Экономика и социум, (12-1 (103)), 14-18.
- 3.T.A.Abdimo‘Minov (2022). SURXONDARYO VILOYATI MINERAL BULOQLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 3 (3), 810-814.
- 4.Abdimo‘Minov T.A., Bozorov S.O., & Raxmatov A.Yu. (2022). SUV OMBORLAR VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI (OQTEPA SUV OMBORI MISOLIDA). Экономика и социум, (12-1 (103)), 19-23.

5. Komilova N.K., & Abdimo‘Minov T.A. (2023). THE GEOGRAPHICAL BASIS OF STUDYING MINERAL SPRINGS. Экономика и социум, (1-2 (104)), 62-65.
6. Abdimo‘Minov T.A., Yoqubova Q.F., & Aliboyev E.H. (2023). MUHOFAZAGA OLINGAN HUDUDLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (KO‘HITANG DAVLAT QO‘RIQXONASI MISOLIDA). Экономика и социум, (5-2 (108)), 4-8.